

## GO'RO'G'LI TURKUMI DOSTONLARI TILINING AHAMIYATI

*Gulumov Maqsud Uktam o'g'li*

*Urganch innovatsion universiteti*

*“Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tillar” kafedrası o'qituvchisi*

[gulumovmaqsudbek@gmail.com](mailto:gulumovmaqsudbek@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'rta Osiyo hamda Kavkaz orti atrofida keng tarqalgan "Go'ro'g'li" turkum dostonlarining kelib chiqishi, ularning tarqalish hududi, umumiy xususiyatlari hamda milliy xosliklari, turkum doirasidagi dostonlarning o'rganilishiga doir kuzatuvlar o'rin olgan. Bu borada "Go'ro'g'li" turkum dostonlarining o'zbek baxshilari tomonidan kuylangan variantlar asosiy obyekt bo'lishi bilan birga, Go'rog'li shaxsiyati bilan bog'liq xorijiy olimlarning fikr va qarashlari muhokama qilindi.

**Kalit so'zlar:** Go'rog'li (Ko'ro'g'li), doston, baxshi, shoxobcha, folklor, variant, versiya, qahramon,

O'zbek folklor adabiyoti har tomonlama boy, ulkan xazinadir. Zero, undagi birgina Go'ro'g'li turkumidagi dostonlarning o'ziyoq shajaralangan holda murakkab va o'zaro bog'langan poemani tashkil qiladi. Ularning har biri alohida mukammal asar bo'lishi bilan birga, Go'ro'g'lining atrofida bo'layotgan voqealarni aks ettiruvchi umumiy va yaxlit epos hamdir. Bu bir asarning boblari turli xil baxshilar tomonidan aytilgan katta asarning tugal qismchalaridir. Shuning uchun ham folklor olimlarini eng ko'p o'ziga tortadigan asarlar bu "Go'ro'g'li" turkumi dostonlaridir.

„Go'ro'g'li“ — xalq og'zaki poetik ijodi yodgorligi. Yaqin va O'rta Sharq, Markaziy Osiyo va Janubiy. Kavkaz xalqlari orasida keng tarqalgan qahramonlik eposi, dostonlar turkumi. Turkumga birlashgan dostonlar turli davrlarda yaratilgan. Ulardan ayrimlarining ildizlari bir yarim-ikki ming yil ilgarigi davrlarga borib taqaladi. Bu dostonlar taxminan 17-asrdan boshlab bir turkumga birlasha boshlagan. „Go'ro'g'li“ turkumiga kiruvchi barcha dostonlar muayyan mustaqillikka ega. Ular og'zaki epik an'anada yakka-yakka ijro etiladi hamda eshituvchi va kitobxon ularning har birini alohida asar sifatida qabul qiladi. Ammo bu silsila dostonlar Go'ro'g'li obrazi, uning doimiy yo'ldoshi G'iro't, epik ozodlik o'lkasi Chambil yurti, an'anaviy obrazlar Soqibulbul, Hasan Ko'lbar, Ahmad Sardor kabilar orqali bir-birlari bilan o'zaro birlashadi. „Go'ro'g'li“ dostonlarini shartli ravishda 2 katta guruhga bo'lish mumkin: Janubiy Kavkaz va Yaqin Sharq versiyalari (ozarbayjonlar „Ko'ro'g'li“si asosida yaratilgan arman, gruzin, turk, kurd va boshqalar) va Markaziy Osiyo versiyalari (o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, turkman, tojik va boshqalar). Barcha versiyalar mavzusi asosini ozodlik, adolat va xalq baxt-saodati yo'lida kurashuvchi bahodir

Go‘ro‘g‘li (Markaziy Osiyo versiyasida) yoki Ko‘ro‘g‘li (g‘arbiy versiyasida)ning jasoratlari tashkil etadi [1, 5, 6].

Ma‘lumki, dostonlarni tadqiq qilishda ularning paydo bo‘lishi, yaratilishidagi motiv va sujetlardan so‘ng obrazlari, obraz turlari va ularning genezisi, doston poetikasidagi epik va estetik vazifalari singari muammolarni yoritish maqsadga muvofiqdir. Mazkur doston variantlaridagi obraz va qahramonlar asosan, bir xil vazifa bajarsalarda, ya‘ni ijobiy obrazlar ezgulikka, salbiy obrazlar yozuvlikka xizmat qilsalarda, odatda, ularning faoliyati janr talabiga ko‘ra turlicha qamrovda va miqyosda namoyon bo‘ladi. Avvalo, har ikkala variantida obrazlar an‘anaga ko‘ra bosh qahramon taqdiri bilan bog‘liq.

Ijobiy va salbiy guruhlar hamda yordamchi obrazlarga bo‘linadi. Mazkur dostonlar o‘zbek va turkiy folklorda olimlar tomonidan tadqiqot obyekti bo‘lgan bo‘lsa-da, aynan “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Avazxon”, “Rayxon arab” dostonlarining o‘zbekcha va qoraqalpoqcha versiyalari hamda variantlari qiyosiy aspektda o‘rganilmagan. Ayniqsa, qoraqalpoqcha va o‘zbekcha matnlardagi motiv va sujetlar, obrazlar, til va uslub xususiyatlari maxsus tadqiq qilinmagan. Ammo, bu sohada V.M.Jirmunskiy, H.T.Zarifov, M.Murodov, M.Saidov, T.Mirzayev, J.Xaliqulov, T.Haydarov, Sh.Turdimov, S.Sariev, M.Seyidov va B.A.Karrievlarning monografik tadqiqotlari folklorshunoslikda katta ahamiyatga ega. Mazkur folklorshunoslardan ozarbayjonlik olim M.Seyidovning “Ozarbayjon mifik tafakkurining asoslari”, M.Murodovning “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining janriy va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari”, Sh.Turdimovning “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari” nomli tadqiqotlarini Go‘ro‘g‘lishunoslikning fundamental manbalari, desak bo‘ladi [4, 7, 8].

Janubiy Kavkaz va Yaqin Sharq versiyalariga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlar „Go‘ro‘g‘li“ning ozarbayjon variantlarida o‘z ifodasini topgan. Unda tasvirlanishicha, Ko‘ro‘g‘li 40 yigitga bosh bo‘lib, adolatsiz tuzumga qarshi chiqadi. Dushman savdogarlari karvoniga kutilmaganda hujum qiladi, nodo‘st podsholiklar bilan bo‘lgan janglarda ajoyib jasorat va qahramonliklar ko‘rsatadi. Cho‘pon, otboqar, darbadar baxshi, duoxon, folbin qiyofalarida dushman ichiga kirib, asir tushgan yigitlariga tadbirkorlik bilan yordam beradi, o‘ziga va yigitlariga ma‘qul bo‘lgan go‘zal parilarni olib qochadi. Go‘ro‘g‘lining jasorati va mardliklari haqidagi hikoyalar yarim tarixiy, yarim afsonaviy harakterga ega bo‘lib, mustaqil podsholiklardagi turli nayrangbozliklar, hukmdorlar hayoti, katta karvon yo‘llaridagi janglar ozarbayjon variantlarining tarixiy mavzusi hisoblanadi.

Markaziy Osiyo versiyalari, xususan, o‘zbek versiyalarida umumlashtirish va ramziylashtirish yuqori darajaga ko‘tarilgan. Bunda qahramonona o‘tmish aniq tarixiy voqealar ko‘lamida emas, balki orzu darajasida, xalqning yuksak maqsadi ko‘lamida tasvirlangan. O‘zbek dostonlarida Go‘ro‘g‘li turkman va o‘zbeklarning begi, qonuniy

hukmdor, o‘z xalqi, vatani uchun qayg‘uruvchi va uni dushmanlardan qimoya qiluvchi yengilmas bahodir, ko‘plab xalq botirlarini tarbiyalab yetishtirgan murabbiy sifatida tasvirlangan [2, 3].

Go‘rog‘li turkumi dostonlari, o‘zbek adabiyotining muhim yodgorliklaridan biri bo‘lib, xalq og‘zaki ijodining boy xazinasini tashkil etadi. Ushbu dostonlar nafaqat adabiy, balki til o‘rganish nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega.

1. Til boyligi: Go‘rog‘li turkumi dostonlari o‘zbek tilining turli boyliklarini, shevalarini va tarixiy bosqichlarini aks ettiradi. Ularda qadimiy so‘zlar, iboralar, frazeologizmlar va xalq maqollari ko‘p uchraydi. Bu dostonlar til boyligini saqlash va rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

2. Madaniy merosni saqlash: Dostonlar orqali xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy hayoti haqida ko‘plab ma‘lumotlar olish mumkin. Til bu ma‘lumotlarni yetkazishda asosiy vosita hisoblanadi.

3. Til o‘rganish va o‘qitish: Go‘rog‘li turkumi dostonlari til o‘rganish jarayonida qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi. Ular o‘quvchilarga tilning stilistik jihatlarini, tarixiy rivojlanishini va adabiy xususiyatlarini o‘rgatadi.

4. Yozma adabiyotga ta‘siri: Bu dostonlar o‘zbek yozma adabiyotiga ham katta ta‘sir ko‘rsatgan. Ko‘plab yozuvchi va shoirlar Go‘rog‘li dostonlari uslubidan, qahramonlaridan ilhomlangan va ularni o‘z asarlarida qayta ishlaganlar [1].

Shunday qilib, Go‘rog‘li turkumi dostonlari o‘zbek tilining boy va xilma-xil qirralarini o‘rganish va saqlashda bebaho manbadir. Shu kabi Go‘rog‘li turkumi dostonlari o‘zbek tilining boyliklarini, tarixiy va madaniy merosini saqlash, o‘rganish va o‘rgatishda juda katta ahamiyatga ega. Bu dostonlar tilning rivojlanishi va adabiy merosning saqlanishida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Go‘rog‘li. O‘zbek xalq dostonlari. T. Mirzayev yozgan so‘zboshi, "SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2006. Toshkent, B. – 3. [Gorogly. Uzbek folk epics. T. With a foreword T. Mirzaev, Main editorial office of the joint-stock company “SHARQ”. 2006. Tashkent, p. 3.], [Гороглы. Узбекские народные эпосы. Т. С предисловием Т. Мирзаева, Главная редакция акционерной компании “SHARQ”. 2006. Ташкент, стр – 3.]

2. Раззоков Х. ва бошқ., Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди, Тошкент, 1980. —ЎҚИТУВЧИ|| нашриёти, Б. – 229 -230. Razzakov and others. Uzbek folk oral poetry literature, Tashkent, 1980. Publishing house "O.,QITUVCHI", P. - 229-230.[Раззаков и др. Узбекская народная устная поэтическая литература, Ташкент, 1980. Издательство “ЎҚИТУВЧИ”, С. – 229 -230.],

3. Ҳоди Зариф, —Равшан|| достони ҳақида, Эргаш шоир ва унинг дostonчиликдаги ўрни, тадқиқотлар, 2 китоб, Тошкент, —ФАН|| нашриёти, 1971,

Б. – 60 – 61. Hody Zarif, About the epic “Ravshan”, poet Ergash and his place in oral poetry, research, 2-book, Tashkent, Publishing house “FAN”, 1971, P. - 60 - 61. Ходи Зариф, Про эпос “Равшан”, поэт Эргаш и его место в устной поэзии, исследования, 2-книга, Ташкент, Издательство “ФАН”, 1971, Б. – 60 – 61.

4. Islam Ansiklopedisi. 26-cild. 2002. S. - 268 – 270.

5. Metin Ekici: Türk dünyası incelemeleri dergisi. Sayı 11 İzmir. 1997. S. - 239.

6. Faruk Sümer, Köroğlu'nun tarihi şahsiyeti hakkında vesikeler, Uluslar arası folklor ve halk edebiyatı semineri bildirileri, Ankara 1976 S. - 46.

7. hirmunsky V.M., Khadi Zarif. T. Uzbek folk heroic epic. - Moscow: GINL, 1947. - pp. 165–279; [Жирмунский В. М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва: ГИХЛ, 1947. – С. 165–279];

8. Khaldarkhan. Narrator: Ergash Jumanbulbul oğlu, Written by: Hody Zarif and Ergash Jumanbulbul oğlu, T., Publishing house of literature and art named after Gafur Gulyam, P. - 55. Халдархан. Рассказчик: Эргаш Джуманбулбул оглы, Написавший: Ходи Зариф и Эргаш Джуманбулбул оглы, Т., Издательство литературы и искусства им Гафура Гуляма, С. – 55.